



XIX ASR OXIRI VA XX ASRNING BOSHIDA AQSH ADABIYOTIDA REALIZM VA NATURALIZM.

Farrux Tursunov Baxtiyor o'g'li

Master student of NamSIFL

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13744558>

Annotatsiya

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida amerika adabiyotiga yangi, dunyoni qanday bo'lsa shunday tarflashga harakat qiluvchi ijodkorlar - realistlar kirib kela boshladi. Ushbu tadqiqot realizm deya atalmish yo'nalishning boshqa oqimlardan farqlari o'xshashliklari hamda uning eng ko'zga ko'ringan namoyondalari asarlariga qisqacha tarif berib o'tadi. Qo'laversa, ushbu oqimning san'atda tugan o'rniga ham to'htalib iqtibos keltirgan holda tadqiq etadi.

Kalit so'zlar: natularizm, saga, idealizm, begonalashuv, alienation.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida amerika adabiyoti juda katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi - u realizm edi. Romantisizmning ideallashtirilgan manzaralari va mehribon qahramonlariga zid o'laroq, realizm harakati nomoyondalari oddiy odamlarning kundalik ishlari, tajribalari va ijtimoiy muammolariga katta etibor bergan holda, amerikaning yomonlashib borayotgan vijdon, sadoqat degan tushunchalarni tasvirlashga jiddi jahd qildi. Realizmgacha bo'lgan davrda, Vashington Irving va James Fenimor Kuperlar mehribon, sadoqatli qahramonlar yashovchi va sarguzasht bilan to'lib toshgan yerlarni tasvirlashgan. Biroq, XIX asrning oxiriga qadar bo'lgan vaqtda amerika juda katta ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarni boshidan o'tkazayotgan edi. Tezkor sanoatlashuv, shaharlashuv va qambag'al va boylar o'rtasidagi bo'shliqning kattalashuvi ko'proq haqqoniy va real yondashuvni talab qiladigan keskin yangi haqiqatning adabiy shaklini vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu davrni amerika adabiyotining oltin davri bo'lgan desak yanglishmagan bo'lamiz sababi bu davr ijodkorlari ushbu hududda juda ko'p turli ajoyib yo'nalishlarda, mavzularda va usullarda ijod qilishdi va amerika adabiyotini jahon adabiyotida tutgan o'rnini mustahkamlashdi. Teodor Drayzer va Mark Tvenning jasurona realizimidan tortib, Valt Vitmanning she'riy romantizimigacha hamda Ernest Heminguey va Frensis Skotning innovatsion modernizmigacha, amerika adabiyotining bu davri mamlakatda kechayotgan katta ko'lamdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarning o'ziga hos aksi bo'lib hizmat qiladi.

Asosiy qism



POLAND



POLAND

Adabiyot shunday kuchga egaki, u o'zining ushbu ajoyib kuchi bilan insonlarni sarguzashtlarga, fantastik sayohatlarga olib chiqadi hamda qaysidir jinoyatchi orqasidan quvishga, jinoyat izlarini topishga majbur qiladi. Biroq shu keng ko'lam ichida bir ajoyib kamdan-kam insonlarga yoquvchi lekin adabiyotda ajralmas o'ringa ega oqim mavjuddir. Bu – realizm. Realizm (lotinchadan "realis" - "material", "haqiqiy") har qanday falsafiy realizmning namoyon bo'lishi, voqelikning mustaqil ravishda mavjudligiga ishonish falsafaning o'zida yoki amaliy san'at va fanlarda bo'lsin, kuzatuvchilarni tasvirlaydi.¹ Romantizmdan farqi, realizm hayotni haqiqatda bo'lgani kabi tasvirlashga qaratilgan har qanday harakatdir. "XIX-asrning o'rtalarida, asarlardagi qirollar va malikalar, jangchilar va ritsarlar, iblis mushuklari, arvohlar, dengiz jonzoatlari va yirtqich hayvonlar tasviri o'z o'rnini fermerlarga, savdogarlarga, advokatlarga, ishchilar, novvoylarga bo'shatib berdi. Adabiyotdagi realizm san'atdagi keng bir harakat bo'lib, endilikda yozuvchilar oddiy odamlar va hodisalarga o'z diqqatlarini qaratdilar."²

XIX asrning o'rtalarida jahon adabiyotida romantizm yo'nalishidan so'ng uning ideallashtirilgan tasvirlariga javob o'laroq realizm oqimi dunyoga keldi-yu adabiyot sarhadlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Adabiy tanqidchi Yan Uattning fikriga ko'ra realizm "romantizmning haqiqat va go'zallikni buzishiga qarshi isyon"³ sifatida paydo bo'ldi. Bu oqimda dastlab fransiyada Onore DeBalzak va Gustav Flabertlar ijod qilishdi. Adabiy oqimlarning turfa hil shakllari ichida realizm o'ziga hos, haqqoniyliги, realligi, hayotni hech qanday bo'yoqlarsiz qanday bo'lsa shunday ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Adabiy nazariyotchi Georg Lukas reallikni ko'rsatish ahamiyatiga urg'u berib "realizmning vazifasi reallikning ishonchli tasvirini berishdir"⁴ deydi. Qolaversa, bu yo'nalishda adiblar o'rta qatlam hayoti, ijtimoiy tabaqalanish ular o'rtasidagi farqlarni ochiq-oydin namoyon etib, kundalik hodisalarga, zerikarli hayotga oyna tutadi. Buning misolini Jek Londonning "Martin Iden", Teador Drayzerning "Baxtiqaro Kerri" ga o'xshash asarlarda uchratishimiz mumkin.

Realizm boshqa oqimlardan quyidagi hususiyatlari bilan farqlanib turadi.

a. **Kunlik hayotga e'tibor berish:** bunday asarlarda hikoya doimo oddiy insonlar atrofida, ularning kunlik to'qnash keladigan qiyinchilik va muammolar haqida bo'ladi. Bunday voqelarni Jek Londonning "Martin Iden" asarida ham uchratish mumkin.

¹ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Realizm_\(san%CA%BCat\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Realizm_(san%CA%BCat))

² А. А. Горнфельд Реализм, в литературе // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб.: 1890—1907.; стр. 226

³ Watt I. Studies in Defoe, Richardson and Fielding. – Chatto & Windus, 1957.

⁴ Lukács G. Realism in the Balance. – 1977.



b. **Batafsil tasvirlash:** har bir personajning harakteri, atrofidagi narsa va voqealarning, kun tartibining ba'tafsil va mukammal bayoni orqali haqqoniylik va reallikni aks ettirishga harakat. Bu oqim ingliz yozuvchisi Evelyn Waugh aytganidek "tashqi reallikni obyektiv va batafsil ko'rsatib beradi."⁵ Jek Londonning "Martin Iden" asarida ham Martinning opasining hayoti ham bu reallikdan dalolatdir.

c. **Psixologik murakkablik:** bu turli asarlarda insonlar boshqa oqimlardan farqli ravishda qahramonlardek emas balki o'zlarining real kamchiliklari, ichki menlari bilan kurashlari aks etadi, Abramsning fikriga ko'ra "inson tabiatining murakkabligi va turfa hilligi"⁶ bilan tasvirlanadi.

d. **Ijtimoiy tasvir va tanqid:** shaxsiy kurashlardan tashqari bu oqim ko'pincha ijtimoiy xayotni ham reallik bilan ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, "adiblar ko'pincha realizmdan ijtimoiy tengsizlik va adolatsizliklarni tanqid qilish, muloqot va mulohaza yuritish uchun"⁷ ham foydalanadi.

Bu oqim ijodkorlari o'z asarlari orqali juda ko'p natijaga erishmoqchi bo'lishgan xususan, inson kechinmalarini tushunish, ijtimoiy ogohlik va turli mavzular ya'ni muhabbat, shaxsiyat, o'lim kabilarni kiritishimiz mumkin. "Martin Iden" asarida ham asar qahramonining safari muhabbatdan boshlanib o'lim bilan tugaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu turli asarlarda kitobxonlar boshqa insonlar tomonidan duch kelinayotgan qiyinchilik va muammolarni chuqur his qiladilar va ular bilan birga yashaydilar. Ijtimoiy ogohlik ham bunday asarlarda ajoyib mohirlik bilan tasvirlanadiki "asar o'quvchini tanqidiy fikrlashga chorlab, o'zini real-xayot muammolari ichida hish qilishiga"⁸ majbur etadi. Lev Tolstoy aytganidek "realistning vazifasi – xayotni qanday bo'lsa shunday ortiqcha rang va bo'yoqlarsiz, soxtaliklarsiz" tasvirlashdir. "Donald Pizer realizmni uchta mezon bo'yicha - ishonchlilik, vakillik va xolislikka asoslangan umumiy qabul qilingan ta'rifini o'zgartirdi. Alfred Xabegger realizm ayollar badiiy adabiyotiga ko'proq qarama-qarshi bo'lganligini ta'kidlagan, bo'lsa Jozefina Donovan ayollarning mahalliy rangli adabiyoti qat'iy ravishda ayollar realizmining antiromantik an'analari doirasida joylashgan bo'lishi mumkinligini"⁹ ta'kidlagan.

⁵ Waugh P. Mind in Modern Fiction: Literary and Philosophical Perspectives after Darwin //The Evolution of Literature. – Brill, 2011. – C. 125-140.

⁶ Abrams M. H., Harpham G. A glossary of literary terms. – Cengage learning, 2014. – 252b.

⁷ Waugh P. (ed.). Literary theory and criticism: An Oxford guide. – Oxford University Press, 2006.

⁸ Lodge D. The Art of Fiction, translated by: Maher El-Batali. – 2002. - 112b.

⁹ Tadjibayev M., Shegay A., Krivosheeva G. The development of realism in American literature //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 10. – C. 145-150.



Garchi realizm va naturalizm AQShda mustaqil ravishda paydo bo'lishi kerakligi aytilsada, tarixiy haqiqat shundaki, realizm Yevropa mamlakatlaridan sharqqa qarab Rossiyagacha bo'lgan hududlarda gullab-yashnagan va yozuvchilar ingliz hamda fransuz ijodkorlaridan ruhlangan. Jorge Luis Borges "The Scandinavian Destiny" maqolasida realizmni dastlab shimolliklar tarafidan adabiyotga olib kirilgan deya tahmin qiladi va uni Islandiya sagalariga bog'laydi. Garchi Amerika provintsial, axloqiy madaniyati Puritanism(protestantlikning bir oqimi) ta'siri ostida realizm va naturalizmni begona, zararli deb rad etgan holda Romantik harakat bilan bog'liq bo'lgan optimism va idealizmni alqab kelgan bo'lsa-da, bu ikki oqim(realizm va naturalizm) Qo'shma Shtatlarga asta sekin kirib o'rnashdi. Hattoki Richard o'zining "Amerika romani va uning an'anasi" (1957) asarida "Qo'shma Shtatlardagi romantizmning eng muhim usul ekanligini ta'kidlagan".¹⁰

Amerika adabiyoti qisqa lekin rangin tarixga ega va bu adabiyot realizm yuksalishida o'zining mustahkam o'rniga ega hisoblanadi. Uni biz ikki yo'nalish romantizm va realizm o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan desak ham albatta yanglishmagan bo'lamiz. Baymning takidlashiga ko'ra "realizmdan oldin romantizm hissiyotlar, individualizm va ideallashtirilgan sharoitlarga urg'u berib, Amerika adabiyotida hukmronlik qilgan."¹¹ Realistlar esa Hovellsning takidlashiga ko'ra "haqiqat, butun haqiqat va yana haqiqat"¹²ni tarif etishadi. Warner Berthoffning "amerikadagi 1880 va 1890-yillardagi katta jamoaviy voqealar realizmning qadrini oshirib uni standart usul holatiga olib keldi" dgan bo'lsa, Jane Benardete esa bu standatlashuvni undan avvalroqqa borib yetadi degan quyidagi fikrni bildirgan "realizm XIX asrning oxirgi 3 dekadasi gullab yashnagan" va bu fikrni qolgan adabiy tarixchilar ham tasdiqlashadi. Garchi Benardetening realizmga ta'rifi uni aniqlashda qiyinchiliklar tug'dirsada, u realizm "xayotning yozma ko'rinishi, reallik, haqiqat" dir deya takidlaydi. Uning fikriga ko'ra ba'zi insonlar hattoki romantizmni Amerika fuqarolar urushining sababchilaridan biri sifatida ko'rishgan va bu realizmning paydo bo'lishiga olib kelgandir.

Garchi Bernardette Mark Tvenni "realizm harakatining kuchli uchligining" biri hisoblasada, ko'plab olimlarning fikriga kora Uilliam Dean Howells va Henry Jameslar amerika realizmining birinchi foydalanuvchilari hisoblanadi.

¹⁰ Pizer D. (ed.). The Cambridge Companion to American Realism and Naturalism: From Howells to London. – Cambridge University Press, 1995. – 21b.

¹¹ Baym N., Levine R. S. (ed.). The Norton Anthology of American Literature: Eighth International Student Edition. – WW Norton & Company, 2011.

¹² Howells, William Dean. "The Editor's Study." *Harper's Monthly Magazine*, vol. 71, no. 423, 1885, pp. 145-149.



Realizmning bir himoyachisi va “Atlantic Monthly”ning muharriri sifatida Hovels “romantisizmni eski dunyo aristokratyasiga o‘xshatadi va shuning uchun ham realizmni amerika adabiyotining asta sekin paydo bo‘layotgan institutlari uchun muqobil va mos estetika ya’ni chiroy” deb hisoblaydi. Qolaversa u “amerika realizmi, pesimistik ruhdagi yevropa realizimidan farqli o‘laroq, hayotda ko‘p uchraydigan holatlarga etibor qaratishi kerak” deya fikr bildiradi. Genry Jamesning fikriga ko‘ra esa san’atkor reallikni taminlash uchun “hozirgi real hayot haqida ma’lumotlar to‘plashi va faktlarga asoslangan voqea-hodisalardan foydalanishi shart emas, balki chegarasiz bo‘lgan hayolot, tasavvurga tayanishi kerak”.¹³

Amerika realizmi yetakchilari o‘z asarlarida odatda iqtisodiy kuchlarning zararlarini tasvirlagan. Ular Yevropa realistik harakatlaridan ilhom olib ob’ektiv kuzatish, ijtimoiy sharhlar va oddiy hayotdagi psixologik va axloqiy murakkabliklarni o‘rganishga e’tibor qaratdilar. Amerika realizm adabiyoti bir necha ajralib turuvchi xususiyatlarga egadir, hususan unda, oddiy insonlar xayotiga e’tibor, ijtimoiy muammolar, mahalliychilik va psixologik realizm namunalariga duch kelishimiz mumkin. Romantisizmning hayotda mutlaq uchramaydigan qahramonlaridan dan farqli o‘laroq realistlar o‘rta, ishchilar sinflariga tegishli bo‘lgan qiyinchiliklar, muammolar, hohish-istaklar va zaif nuqtalarni o‘z asarlarida mohirona tasvirlaydi. Bunday asarlarga Mark Tvenning “Geklberri Finning boshidan kechirganlari”, Kate Shopinning “Uyg‘onish”ni misol qilib keltirishimiz mumkin. Realizm jadal sodir bo‘layotgan ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlar davom tayotgan bir pallada sodir bo‘ldi, shuning uchun ham Sinklar, Hamlin Garland kabi yozuvchilar ijtimoiy muammolarga ham juda katta e’tibor qaratishdi. Turli hil jamiyatlarning boshidan o‘tkazgan voqea-hodisalarni tasvirlash uchun, realistlar hududiy shevalardan, odatlardan va landshaftlardan foydalanishdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Amerika iqtisodiy rivojlangan sanoat mamlakatiga aylandi shuning uchun ham turli mamlakatlardan insonlar ko‘chib bu mamlakatga kela boshladi va shu bilan bir qatorda amerikada “alienation” ya’ni begonalashuv vujudga kela boshladi. O’sha davr ijodkorlaridan Stephen Crane va Jek Londonning asarlarida ham bu voqealar o‘z aksini topdi va ularda iqtisodiy kuchlarning va begonalashuvning zaif va nimjon shaxslarga ta’siri aks eta boshladi.

Naturalizm ham realizm ham bir hil narsani ya’ni amerika hayotini vijdon ila tasvirlashga ahd qilgan bo‘lsada ular bir-biridan yondashuvi va falsafasi bilan

¹³ Tadjibayev M., Shegay A., Krivosheeva G. The development of realism in American literature //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 10. – C. 145-150.



bir oz farq qilgan. Charlz Darvinning evalutsiya teoriyasining yaratilishi va Emil Zolyaning adabiy determinism tushunchalari naturalizm oqimiga judda katta ta'sir ko'rsatgan voqealardan hisoblanadi. Naturalist yozuvchilardan Drayzer va Stefen Krane o'z asarlarida insonlarning hayotlari tabiyat va nasliyatga o'xshash nazorat qilib bo'lmas kuchlar oqibatida shakllanadi degan huloa qilishadi. Ularning asarlarida biz odatda tirik qolish uchun kurash qolaversa jamiyat va iqtisodiy muammolar tufayli insonlarning kamchilik va nuqsonlariga urg'u bergan holda hayotga sovuq va hissiz nazar bilan qarashni ko'rishimiz mumkin. Naturalizm inson hayotidagi har bir hodisa o'z qo'li ostida emasligi, tashqi omillar sababli vujudga kelishi haqida fikr yuritib, achchiq haqiqatlarga(qambag'allik, vaxshiylik, hayot uchun kurash) o'z diqqat etiborini qaratadi.

Realizm oqimi ijodkorlari eng oddiy va qiziqarli bo'lmagan voqea va harakatlardan ularning to'laqonli qadri va haqqoniy ma'nosini aniqlash, ajratib olish uchun o'zilarini shunday voqea va harakatlarni tasvirlashga majbur qilishgan. Bu uslub asarlari inson tabiyatidagi tanishlik, notanishlik va etibor berilgan, berilmanganlik ortasidagi bog'liqliklarning barcha jabhalarini o'z ichiga qamrab oladi. Go'yoki sokin va odatiy kunlarning aldamchi yopinchi'gi ostida, realizm inson ruhiyatining yashirin qirralarini aniqlashga, ularning shaxs sifatida shakllanishidagi o'zgarishlarni o'lchashga, qayta tiklanish yoki ruhiy zavolga yuz tutishning sabab va oqibatlarini kuzatishga, aqliy va hohish-istaklarimizning tarixini tushunishga harakat qiladi va aniqlaydi. Qisqacha qilib aytganda, biz etibor berilishi shart emas deb hisoblagan narsalarimizdan bu oqim bizlarga juda katta yangiliklar olib keladi va bizni o'zgarishga chorlaydi, chunki unda doim biz o'z aksimizni topamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Realizm_\(san%CA%BCat\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Realizm_(san%CA%BCat))
2. А. А. Горнфельд Реализм, в литературе // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб.: 1890—1907.;стр. 226
3. Watt I. Studies in Defoe, Richardson and Fielding. – Chatto & Windus, 1957.
4. Lukács G. Realizm in the Balance. – 1977.
5. Waugh P. Mind in Modern Fiction: Literary and Philosophical Perspectives after Darwin //The Evolution of Literature. – Brill, 2011. – C. 125-140.
6. Abrams M. H., Harpham G. A glossary of literary terms. – Cengage learning, 2014. – 252b.



POLAND

CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

7. Waugh P. (ed.). Literary theory and criticism: An Oxford guide. – Oxford University Press, 2006.
8. Lodge D. The Art of Fiction, translated by: Maher El-Batali. – 2002. - 112b.
9. Tadjibayev M., Shegay A., Krivosheeva G. The development of realism in American literature //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 10. – C. 145-150.
10. Pizer D. (ed.). The Cambridge Companion to American Realism and Naturalism: From Howells to London. – Cambridge University Press, 1995. – 21b.
11. Baym N., Levine R. S. (ed.). The Norton Anthology of American Literature: Eighth International Student Edition. – WW Norton & Company, 2011.
12. Howells, William Dean. "The Editor's Study." Harper's Monthly Magazine, vol. 71, no. 423, 1885, pp. 145-149.
13. Tadjibayev M., Shegay A., Krivosheeva G. The development of realism in American literature //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 10. – C. 145-150.

